



МУҒАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ

Илимий-методикалық журнал

№ 4/2 2023





МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

4/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



Зухуров Й.Т. Бўлажак муҳандисларни картографик компетентлигини ривожлантиришда кўпланиладиган дастурий воситалар	298
Ибрагимов Н.Ш. Ўкувчиларни мослашувчан математик фикрлаш қобилиятини ривожлантириш	308
Xolov K.N., Raximov X.A., Rasulova M.S. Dasturlashtirish tillari yordamida matematik masalalarning yechimlarini umumlashtirish	312
Nishonov F. Talabalarning matematikani o‘zlashtirishda individual ta’lim traektoriyasini loyihalash	318
Rahmonjonov X. Oliy ta’lim tizimida muhandislik grafikasi fanlarini qiyosiy o‘qitilishining asosiy xususiyatlari	324
Mingboev U. Axborot xavfsizligi monitoringi	329
Ўроқова Ю. Информатика ўқитишида педагогик технологияларини жорий этишга оид илмий тадқиқотлар таҳлили	333
Уришов А.Н. Профессиональная компетенция в подготовке будущих педагогов к самостоятельной деятельности	336
Ганиев И. Д. Роль “blended learning” и “flipped classroom” в совершенствовании методической системы обучения сетевым технологиям	340
Кулжанов Н.Ж. Бўлажак информатика ўқитувчиларини тайёрлашда илмий-методик ёндашувларнинг моҳияти	344
Эргашев Ж.Б. О некоторых проблемах методической системы преподавания ИТ в общеобразовательных школах	349
Куралов Б. А. Классификация и анализ видов хакатона	353
Абдуллаев Б. П. Исследование концепций цифровизации в высшем образовании	356

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТҶРБИЯ

Amirullayeva B. A. Muammoga asoslangan ta’lim (PBL) o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantrish kaliti	366
Ibragimova G. S. Ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish	375
Xaydarov O. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagogning familistik kompetentligi	379
Ahmedova M. U. Boshlang‘ich sinf darsliklarida onomastik leksikaning ifodalananishi	386
Qurbanova M.F. Boshlang‘ich ta’limni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati ..	392
Kaziyeva T.T. Talabalarning tinglab tushunish anglish qobiliyatları rivojlantrishda yozma va og‘zaki til adabiy me’yorlari	396
Djurayeva D. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining hamkorlikdagi faoliyati(adabiyotlar tahlili)	403
Xafizova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasb tushunchalarning shakllanishi	408
Rashidova Z. Ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarini rivojlantrishda xorijiy tajribalar va ularning tahlili(maktabgacha ta’lim misolida)	415
Турғунова Г.М. Бошлангич синф ўкувчиларида дарсга ижобий муносабатлар шакллантиришнинг инновацион тузилмаси	420
Турғунова Г. М. Дарсга ижобий муносабатни ривожлантириш орқали ўкувчиларни комплекс ривожлантириш омиллари	428

ФИЗИКАЛЫҚ ТҶРБИЯ ХЭМ СПОРТ

Xakimova G.A. Yosh avlodni jismoniy tarbiya vositalari orqali tarbiyalash va ulardagι fiziologik o‘zgarishlar	446
Omonov D.A. Mahallaning uyushmagan yoshlarini jismoniy tarbiya va sport orqali kasbiy faoliyatini shakllantirish	451



BOSHLANG'ICH TA'LIMNI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH ZARURATI

Qurbanova M.F.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, P.f.f.d(PhD)

Tayanch so'zlar: zamonaviy yondashuvlar, PISA, PIRLS, xalqaro baholash dastur talablari, o'qishga munosabat, loyihalash faoliyati, mustaqil ishlash qobiliyati.

Ключевые слова: современная солнечная энергия, PISA, PIRLS, практические программы, отношение к учебе, плетевая активность, развитие самостоятельных требований.

Key words: modern solar, PISA, PIRLS, practical programs, attitude to study, lash activity, development of independent requirements.

Butun dunyo ta'lismizining PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim mazmunini belgilashi ta'lilda yangicha yondashuvlar, o'sish, o'zgarish, yangilanish jarayonlarini paydo qilmoqda.

"Oyog'i osmondan bo'lgan sichqonlar", "Tomdag'i gullar", "Dushman uchun pirog" kabi badiiy asarlar o'quvchiga estetik zavq berish bilan birga, mantiqiy fikrlashga, kreativlikka undaydi, nostonart vaziyatlarda o'z bilimidan foydalanishga yordam beradi. "Zumrad va Qimmat", "Egrivoy va To'g'rivoy", "Baxil va Saxiy", "Yomonlikning jazosi" kabi didaktik ruhdagi asarlarda faqat tabiyaviy maqsadlar ilgari surilgan, zamonaviy talablarga mos keladigan kreativlik, ijodkorlik tamoyillari kabi zamonaviy mezonlar hamda hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan yangi bilimlar va ishtimoiy ko'nikmalar aks etmagan. PIRLS topshiriqlari uchun tanlangan matnlar ham o'quvchini mustaqil tarzda yangi bilimlarni izlab topishga, kitobxon o'quvchiga aylanishiga xizmat qiladi. Buning sababi matnlar mazmuni rang barang va takrorlanmas mazmunga egaligi bilan harakterlanadi.

PIRLS baholash dasturi uchun o'qish savodxonligi jamiyat talab qiladigan yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ishlatish qobiliyati sifatida belgilanadi. Yosh o'quvchilar turli xil matnlardan ma'no tuzishlari mumkin. Ular o'qish uchun, muktabda va kundalik hayotda o'quvchilar jamoalarida ishtirot etish uchun o'qishadi [1].

PIRLS baholash dasturi o'quvchilar o'qish savodxonligining uch jihatiga qaratilgan:

o'qish maqsadlari;



tushunish jarayonlari;
o‘qishga munosabat.

Tushunish jarayonining to‘rt turi PIRLS baholash dasturida baholanadi:
aniq bayon qilingan ma’lumotlarga e’tibor qaratish;
to‘g‘ri xulosalar chiqarish;
g‘oyalarni sharhlash va birlashtirish;
matn tarkibi, til, matn elementlarini o‘rganish va baholash.

PIRLS baholash dasturi o‘qish maqsadlari va tushunish jarayonlarida o‘quvchi ishtirokini o‘rganadi. Biroq, ular bir-birlaridan yoki o‘quvchilar yashaydigan va o‘rganadigan matnlardan ajratilgan holda tahlil etilmaydi. O‘qish savodxonligi insoniyatning qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘qish sabablari bilan bevosita bog‘liq. Umumiyligi holda, bu sabablar shaxsiy qiziqish va zavq uchun o‘qish, jamiyatda ishtirok etish uchun o‘qish va bilim olish uchun o‘qish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Yosh kitobxonlar uchun bu jihatlar muhim ahamiyatga ega.[2]

PIRLS baholash dasturi baholash tizimi mакtabda va undan tashqarida yosh o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘qishning aksariyat qismini hisobga olish uchun quydagilar asosiy maqsad sifatida belgilangan:

adabiy tajriba orttirish uchun;
yangi ma’lumotlardan xabardor bo‘lish uchun;
yangi bilimlardan foydalanish uchun.

Ushbu yoshda o‘qishning har bir turi muhim, PIRLS baholash dasturi har bir maqsadni baholaydigan materialning teng nisbatini o‘z ichiga oladi.

O‘qish savodxonligi butun umri davomida o‘qishni qo‘llab-quvvatlaydigan xatti-harakatlar, jarayonlar va munosabatlarni qamrab oladigan turli xil matnlardan ma’no yarata olish qobiliyatidir. Bunday xatti-harakatlar va munosabat savodli jamiyatda shaxsning imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishga yordam beradi [3].

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish fanini o‘qitishning asosiy maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shaklantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiatini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish fani o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga o‘quvchilarda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlashni shakllantiradi hamda o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Izlanishlar davomida Respublikamiz miqyosida PIRLS baholash dasturiga tayyorgarlikko‘rayotgan tayanch maktablarning 4-sinflarida o‘qish savodxonligini oshirish yuzasidan quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:



o‘quvchilar notanish matnga tayyor emasligi;
axborot matnlari bilan ishlash qobiliyati sustligi;
badiiy matnlarda mantiqiylik asosida savol va topshiriqlarga javob berishda
qiynalishi;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan sinf rahbari yoki maktab xodimidan boshqa
notanish shaxs tomonidan olingan nazorat ishlari ta’lim sifatini tushishiga ta’sir
ko‘rsatishi;

o‘quvchilarda shoshqaloqlik, ikkilanish va chuqur hayajon tufayli savollarga
javob bera olmaslik;

o‘qish savodxonligida tez va ifodali o‘qishga e’tiborni kuchaytirish orqali
izohli va ongli o‘qish turiga e’tibor berilmaslik natijasida o‘quvchilarda matnlarni
o‘qish va tushunish darjasini pasayganligi;

o‘qituvchi tomonidan nostandard vaziyatlarni tashkil etishda kreativ faoliyatni
va o‘quvchining motivatsiyasini oshirishda nazariy bilimlarning yetishmasligi;

o‘quvchilarda loyihalash va mustaqil ishlash qobiliyatining shakllanmaganligi.

Pedagogik tadqiqotlarda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rishda
aniqlangan mauammolarni bartaraf etish hamda yuqori reyting natijalariga
erishish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. PIRLS topshiriqlaridagi matnlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshi,
qiziqishi va bilish darajasini tahlil qilish orqali boshlang‘ich sinf 3-chorakdan
boshlab mustaqil ishlar jarayonida quyidagi yondashuvlar asosida o‘qitish
maqsadga muvofiq:

- rejalshtirish;
- amalga oshirish (sinab ko‘rish);
- birgalikda tahlil
- baholash;
- qayta ishlash (tatbiq etish) [4].

2. Mustaqil ishlar jarayonini “Teskari ta’lim”, “MIMM”, “Kouching”
metodlari yordamida tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu metodlar o‘zlashtirilgan
bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, o‘quvchilarda tezkor qaror qabul qilish
va kreativ fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi va bu PIRLS
talablariga muvofiq keladi.

3. O‘quvchilarning o‘qilgan asar bo‘yicha taassurotlari, o‘zлari chizgan rasm va
boshqa mustaqil ishlari hamda erishgan yutuqlari asosida “o‘quvchi portfoliosi”ni
shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu o‘quvchilarda o‘zлари mustaqil bajargan
ishlaridan zavqlangan holda mustaqil bajariladigan ishga nisbatan rag‘batini
oshirishga, o‘z qobiliyatlarini anglashga xizmat qiladi [5].

PIRLS baholash dasturi talablari yangi bilimlar va ma’lumotlarni tushunish,
tahlil qilishda o‘quvchi egallagan bilimlaridan foydalana olish qobiliyatiga e’tibor
qaratiladi. O‘quv jarayoniga PIRLS baholash dasturi talablarini tatbiq qilish
ta’lim mazmunini o‘zgartirishda, o‘quv jarayoni sifatini oshishiga, pedagogning



амалий исхларда самарадорлик ошишига сабаб бо‘лади. PIRLS бахолаш дастури таҳлили натижаларида “Нимани о‘қитиш керак?”, “Нимага о‘қитиш керак?”, “Qандай о‘қитиш керак?” савollariga yechim topiladi[6].

Zamonaviy ta’lim tizimida PIRLS бахолаш дастури ta’limning sifatini ta’minlaydi. Aslida, ta’lim sifatini boshqarish o‘quv jarayonida ta’lim olish натижалари сифатидаги злаштирлиши зарур компетенсиyalarni aniqlash bilan boshlanadi. PIRLS бахолаш дастури o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi faoliyati ham hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim самарадорлиги ва сифатини oshirish hamda PIRLS бахолаш дастurida ijobjiy натижага erishish uchun xalqaro baholovchi dasturlarning maqsadi, vazifalari va talablariga mos o‘quv va didaktik materiallari, ta’lim texnologiyalarini o‘quvchilarning umumiy bilim savyysi, o‘zlaşdırılmış ve qiziqishlarini inobatga olib tanlash lozim. Tanlangan metodni amalga oshirishda bosqichma-bosqich tarzda, o‘quvchini faol hamkorlikka undovchi, guruhlar va yakka tartibda ishlay olish imkoniyatini oshirish uchun o‘qituvchidan katta mahorat va zamonaviy pedagogik bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Shundagina o‘quvchilarda tayanch hamda fanga oid kompetensiylar samarali shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. Yakimanskaya, I.S. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii: problemi i puti modernizatsii. – Novosibirsk. 2013.- 159s.
2. Baker, L., Scher, D. (2002). Beginning readers’ motivation for reading in relation to parental beliefs and home reading experiences. *Reading Psychology*, 23(4), 239-269 c.
3. Qurbanova M.F. Umumiyo‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiylarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2020. 3-maxsus son. – B. 29-33. (13.00.00 №17)
4. Qurbanova M.F. O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiylarini shakllantirishda kouching metodikasi // Maktab va hayot. – Toshkent, 2020. Maxsus son №1, – B. 8-10. (13.00.00 №4)
- 5.Qurbanova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiylarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar // Mug‘allim həm yzliksiz bilimlendiriw. – Nukus, 2021. – B. 112-116. (13.00.00 №20)
- 6.Mirzayeva S.T. (2023). Zamonaviy yondashuvlar asosida adabiyot darslarini tashkil etish. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 3(1), 130–134. <https://doi.org/10.5281/zenodo>.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim mazmunini belgilashi ta’limda yangicha yondashuvlar tahlili haqida fikr bildirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье выражена необходимость современного производства производственного контента PI, анализ нового создания образовательного контента в образовании на основе производственных программ типа PIRLS.

SUMMARY

This article discusses the need for modern production of production content by PI, analysis of new content in education based on production programs such as PIRLS.